

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11069484>

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INTEGRATSION TA'LIM ASOSIDA TARBIYALASH

Ibodulloyev Nurali Sheraliyevich

Buxoro davlat pedagogika instiuti

Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

nuraliibodulloyev@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-5376-7849>

***Annotatsiya:** Maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni integratsion ta'lim asosida tarbiyalash ularni ijtimoiylashtirish masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumiy ta'lim tizimida ta'limni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi amalga oshirilmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarni integratsion ta'lim tizimida o'qitish masalalariga e'tibor berish. "Ta'lim hamma uchun" umummilliy dasturining mohiyatini targ'ibot qilish. Integratsion ta'limning maqsad va vazifalari uni amalga oshirish yo'llari haqida bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Imkoniyati cheklangan, bolalar, integratsiya, alohida ehtiyojmand, gospital pedagogika, umumiy ta'lim, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy ajratish, maktab, konsepsiya, yaxlit, talim hamma uchun, onkologik.*

Davlatimizni ustuvor yo'nalishlaridan biri sog'lom va har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish bo'lib hisoblanadi. Sog'lom avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirish g'oyatda mas'uliyatli vazifa, shuning bilan birga, insonparvarlik tuyg'usi davlatimizning siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy

hayotga oid chuqur o'zgarishlar kundalik turmushimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shu bilan birga, jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarish jismoniy va ruhiy nuqsonga ega bo'lgan bolalarning ko'payishiga ham sabab bo'ladi. Bu sayyoramiz aholisining birdan o'n qismini tashkil etadi. Umumjahon sog'liqni ekologik saqlash tashkiloti ma'lumotlari dunyoda bunday kishilar soni 13%ga yaqinligidan dalolat beradi. Shundan 3% intellektida kamchiligi bo'lgan bolalar, 10% turli ruhiy va jismoniy nuqsonga ega bolalardir. Mustaqil O'zbekistonimizda nogironlar bolalikdan ijtimoiy himoya qilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 2007 yilni "Ijtimoiy himoya-yili" deb e'lon qildi. Bu yilning maxsus ta'limga tegishli jihatlari ko'p. "Ijtimoiy himoya" davlat dasturida aholining ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga, jamiyatimizda ahillik, bag'rikenglik, mehr-oqibat, millatlararo do'stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlashga, xususan kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, boquvchisidan ayrilgan bolalar, alohida yordamga muhtoj bolalarni moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor berilgan. Ushbu ishlar hozirgi kunda ham davom ettirilmoqda.

Imkoniyati cheklangan bolalarni integratsion talim asosida tarbiyalash va ularni jamiyatga integratsiya qilish o'z o'rnini topishi uchun imkoniyatlar yaratib berishda ularning ham sog'lom bolalar qatori ta'lim olish huquqiga ega ekanini esdan chiqarmasligimiz kerak. Integratsion talim tushunchasiga yuzlanar ekanimiz avvalo ushbu tushunchaning qanday ma'no anlatishini mazmun mohiyati nimada ekanligini bilib olishimiz kerak.

"Integratsiya" tushunchasi ingliz tilidan olingan bo'lib, itegrative-qo'shiluvchi, birlashuvchi, itegration-qo'shilish, birlashish degan ma'nolarni bildiradi. Integratsion ta'limda jahon miqiyosida turlicha yondashishlar mavjud. "Integrasion ta'lim bu - segregasion ta'limning aksi bo'lib, bunda maxsus ehtiyojli bolalar umumta'lim muassasalari tizimiga kiritiladi" deb yozgan soha mutaxassisi Volferen Berger (1972-yil).

Xorijda integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya xorijdagi rivojlangan davlatlarda nogiron bolalar bilan ishlash bo'yicha ma'lum me'yorlari, shakllari va metodlari shakllanib bo'lgan. Tabiiyki, har bir mamlakatda aholining mazkur kategoriyasiga yordam ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular milliy xususiyatlar, ijtimoiy-iqtosodiy shart-sharoitlar, psixologik- pedagogik an'analar, ma'lum ilmiy yondashuvlarga mo'ljallanganligi kabilar asosida shakllanadi. Shu bilan birga mazkur bolalarga yordam ko'rsatishda inobatga olish shart bo'lgan bir necha umumiy tendensiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin. "Shuni qayd etib o'tish kerakki, deb yozadi Ture Yonsan - integratsiyaning yolg'iz o'zi maqsad emas, nogiron bolani umumta'lim sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Ammo bu ta'lim tizimi bolani o'rganish orqali aniqlangan ehtiyojlarni to'la qondirishni talab etuvchi aniq resurslar va olib boriladigan ishlardan iborat aniq reja asosida amalga oshiriladi". Integratsiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qaraladi. Nogironlikning individual yoki tibbiy ko'rinishida bola maktabga yoki jamiyatga moslashishi uchun uni o'zgartirish yoki tiklash kerak, deb taxmin qilinadi. Masalan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bola umumta'lim sharoitiga moslashishi uchun eshituv apparatidan foydalanib gapirishni o'rganishi kerak. O'qituvchi va me'yorda rinojlanishidagi boladan esa imo-ishora tilini va muloqotning boshqa shakllarini o'rganish talab qilinmaydi. O'qishda esa muammo bor. Bola standart talablarni bajarishi kerak. Aks holda ikkinchi bosqichga qoldiriladi yoki maktabni tark etishiga to'g'ri keladi. Hozirgi kunda integratsion ta'lim tizimi ichida qo'llab-quvvatlashning turli shakllari mavjud: O'qituvchi va ota-onalarga to'g'ri maslahat berishni ko'zda tutuvchi oldini oluvchi choralar, bolalarga ta'lim berishda erta aralashish paytidagi fanlararo hamkorlik, o'qituvchilar bolalar va ularning ota onalari bilan o'zaro hamkorlikda ta'lim ta'lim, darslar.

Integratsiya keng ma'noda ijtimoiy integratsiya yoki jamiyatga integratsiya va pedagogik integratsiya yoki ta'limga integratsiyani o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy integratsiya – rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani ijtimoiy munosabatlar va xatti-harakatlarning umumiy tizimiga ijtimoiy adaptatsiyasidir. Nogiron bolani

jamiyatga integratsiyasi muammosi bir tomondan, psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini mavjud- ligi bilan, ikkinchi tomondan ijtimoiy munosabatlar tizimini mukam- mal emasligi, ya'ni ba'zi talablarini ma'lum darajada keskinligi hayot faoliyati cheklangan bola uchun o'ta olmaydigan to'siqqa aylanishi bilan ifodalanadi. Nogironlarni jamiyatga integratsiyasining ikki yondashuvi mavjud. Birinchi yondashuv nogironni jamiyatga integratsiyasini mavjud atrof-muhit shart-sharoitlarga moslashishini nazarda tutadi. Albatta, mazkur yondashuv bir tomonlama va juda tordir. Ikkinchi yondashuv nogironni jamiyatga kirishga tayyorlash va jamiyatni nogiron bolani qabul qilishga tayyorlashni nazarda tutadi. Nogironni jamiyatga kirishga tayyorlash bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, jamiyatni nogiron bolani qabul qilishga tayyorlash bo'yicha ishlar endi muhokama qilinmoqda

Integratsiyalashgan ta'limni tashkil etishni yordam ko'rsatishning vaqt bo'yicha qonunchilik tomonidan cheklab qo'yilishi qiyinlashtiradi. Jalb qilinuvchi mutaxassislar xizmatlarini byudjet tomonidan kafolatli moliyalashtirish muayyan muddatga mo'ljallangan. Masalan jismoniy nuqsonlari mavjud o'quvchilarga keluvchi pedagoglar tomonidan yordam ko'rsatilishi ikki yil bilan cheklangan. Bu vaqt o'tganidan so'ng maktab mustaqil ravishda integratsiyalashgan o'quvchilarga yordam berishni tashkil etish usulini qidirishga majbur. Shunday qilib, hatto integratsiyalashgan o'quvchilarga yordam ko'rsatishga tegishli byudjet bo'yicha mablag' ajratilganiga qaramasdan, muayyan bosqichda umumta'lim o'quv yurti maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilarga sifatli yordam ko'rsatishning moliyaviy muammolari bilan to'qnashadilar. Ommaviy maktab o'qituvchilarining biror nuqsoni mavjud bolalar bilan ishlashning xususiyatlari bilan tanishtiradigan qisqa muddatli kirish kurslariga qatnashishining cheklangan imkoniyati muammoning boshqa tomoni sanaladi. Bunaqangi muammolarni sanaydigan bo'lsak talaygina muammolar muammoligicha qolib ketmasligi uchun bularga yechim topish va bartaraf etish zarur. Integratsiya tushunchasi bilan birgalikda gospital ta'limga ham etibor qaratadigan bo'lsak bunda imkoniyati cheklangan bolalarni kasalliklarini kelib chiqishi ularga pedagogik-psixologik va klinik jihaddan ko'maklashish, bu kasalliklarni oldin olish

choralarini ko‘rish haqida so‘z boradi.

Gospital ta‘lim - uzoq muddatli davolanayotgan va sog‘lig‘i sababli ta‘lim muassasasiga bora olmaydigan bolalarni o‘qitishni tashkil etish bilan bog‘liq pedagogikaning bo‘limidir. Gospital pedagogikasi pedagogikaning bir qismi bo‘lib, o‘z e‘tiborini o‘quvchilarning alohida toifasiga — uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarga qaratadi. Pedagogikaning ushbu yo‘nalishini amalga oshirish va rivojlantirishning murakkabligi idoralararo mansubligi bilan belgilanadi: ta‘lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya, — chunki kasalxonada uzoq muddatli davolanayotgan bola birinchi navbatda bemor, ikkinchidan — o‘quvchi. Bolani davolash jarayonida tibbiy va pedagogik texnologiyalarni birlashtirish keng qamrovli reabilitasiyani anglatadi. Davolanish bilan birga ta‘limga qaytish onkologik kasalligiga chalingan bola uchun ijobiy taassurot qoldirishi mumkin, ammo shu bilan birga u sinfdoshlari orasida yo‘qligi, tengdoshlari bilan muloqotning uzilishi, davolanishning nojo‘ya ta’sirlari, zaiflik bilan kurashish zarurati kabi qiyinchiliklarni boshidan kechiradi.

Bolaga onkologik kasallik tashxisi qo‘yilganda, uning eng yaqin qarindoshlari moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishadi, ular jismoniy, ruhiy salomatlik va farovonlik nuqtai nazaridan hayot sifatini pasaytiradi va ijtimoiy o‘zaro ta’sirni yomonlashtiradi. Shuning uchun, gospital ta‘lim onkologik kasalligiga chalingan bolalarning va ularning yaqin qarindoshlarini ruhiy va emosional holatini yaxshilash, qo‘llab-quvvatlashi uchun xizmat qiladi. Gospital ta‘lim o‘quvchilarining yuksak ma‘naviyatli, barkamol avlod etib tarbiyalash, o‘quvchilarga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalar asosida ta‘lim berish mamlakatimizning ta‘lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta‘lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o‘taydi. Korreksion pedagogika fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlari mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi:

-surdopedagogika (lotincha surdus – kar, gung so‘zidan olingan) eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ta‘lim tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fan;

-tiflopedagogika (yunoncha tiflos – ko‘r, so‘qir so‘zidan olingan) – ko‘zi ojiz bolalarning ta‘lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fan;

-oligofrenopedagogika (yunoncha oligos – kam, fren – aql), so‘zlaridan olingan, – aqliy tomondan zaif bolalarning ta‘lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fan;

-logopediya (yunoncha logos – so‘z, padeo – tarbiya so‘zlaridan olingan) – og‘ir nuq nuqsonlarini o‘rganish, oldini olish, bartaraf etish yo‘llari, usullarini o‘rganadigan fan.

Gospital ta‘limning boshlang‘ich sinf darslarida bolani qalban yuksak, ma‘naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun birinchi navbatda, gospital ta‘lim o‘quvchisini umumiy holatidan kelib chiqqan holda o‘qish, bilim olishga ishtiyoqini o‘stirish, ularning ma‘naviy dunyosini boyitish zarur. Mehrli maktabda Markazda davolanayotgan bolalar uchun alohida ishlab chiqilgan o‘quv reja asosida 1–11-sinflar hajmida umumiy o‘rta ta‘lim beriladi. Dars mashg‘ulotining davomiyligi boshlang‘ich ta‘lim: 1–4 sinflarida – 35 daqiqani tashkil etadi. Bunda bir kunlik dars mashg‘ulotlari 3 soatdan bo‘lib, o‘quv haftasi davomiyligi esa 5 kunlik asosida olib boriladi. Darslar o‘quvchining umumiy holatidan kelib chiqib, yakka(individula) tartibda yoki guruh(sinf)da tashkil qilinadi Boshlang‘ich 1 sinflarda birinchi yarim yillikda Alifbe,yozuv, matematika, tabiiy fan va ingliz tili, 2-yarim yillikda esa Ona tili va o‘qish savodxonligi matematika, tabiiy fan, rus tili hamda ingliz tili fanlari o‘tiladi.

Bolalarni savodga o‘rgatishda tahlil-tarkib qilishga undovchi mantiqiy topshiriqlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning fikrlash doirasi kengaytiriladi. Fikrlash jarayonida o‘quvchilar tafakkur yuritish orqali qator mantiqiy amallarni bajaradilar. Boshlang‘ich ta‘limning savod o‘rgatish bosqichi yakunlangach ona tili va o‘qish savodxonligi darslari boshlanadi hamda 4-sinf yakuniga qadar izchil davom etadi. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda asosiy e‘tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma: o‘qib tushunish, nutq so‘zlash, yozish va grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Matematika esa o‘quvchining aqlini charxlaydi, diqqatini

rivojlantiradi, ko‘zlangan masadga erishish uchun qat’iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlikka o‘rgatadi va eng muhimi, mulohaza yuritish, muammolarni hal qilish, innovasiyalarga chorlaydi hamda tafakkurini kengaytiradi.

Imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim-tarbiya berish sohasida esa ta’limga integratsiya va maxsus maktablarni mavjudligi ikki o‘zaro parallel zaruriy shartlar hisoblanadi. Mazkur ikki shart ta’lim- tarbiya tizimini moslashuvchanligi va tartibini ta’minlagan holda bu bolalarni ehtiyojlarini o‘zgargani sari unga qo‘shilish yoki uzoqlashish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Shomaxmudova .R.Sh Inklyuziv ta’lim (Xalqaro va O‘zbekistondagi tajribalar) Toshkent-2011
2. Xodjayev. B Umumiy Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Toshkent-2017 (188bet)
3. Grigoryans N.A Saidakbarova.T, Fayziyeva Z.Sh. Ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalar inkluziv ta’limi.-T.O‘XTV, A. Avloniy nomidagi XTRXMOI, UNICEF, 2005.
4. P. Pulatova Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika). T.: «G‘afur G‘ulom», 2007.
5. V.S. Raxmanova. “Maxsus pedagogika”. -T., ”G‘afur G‘ulom”, 2004.
6. Федюкин В.К. Квалитология: Учебное пособие. Часть 1. - СПб.: Изд-во СПбГИЭУ, 2002.
7. Федюкин В.К. Основы квалиметрии. - М.: Изд-во «ФИЛИНЪ», 2004.
8. Ibodulloyev, N. S. (2023). SINFDAN TASHQARI O ‘QITISH ISHLARINI TASHKIL QILISHDA O ‘QUVCHILARDAGI KREATIV FIKRLASH KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY VA NAZARIY ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 36-40.

9. Ibodulloyev, N. S. (2023). SINFDAN TASHQARI O ‘QITISH SHAKLLARI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH VA SINFDAN TASHQARI O ‘QISH DARSLARINING MUHIM VAZIFALARI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 2(17), 150-153.
10. Ibodulloyev, N. S. (2023). TECHNOLOGY OF DEVELOPING STUDENTS’ CREATIVE QUALITIES BASED ON FORMS OF EXTRACURRICULAR EDUCATION. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 798-803.

Axborot manbalari:

1. www.tdpu.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.edu.uz
4. www.nutq.intal.uz